



Jessi Styuart hikoyalarida inson va tabiat mavzusining tasviri

O'ralova Lobar Axrorovna

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti

Magistratura 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Jessi Styuartning “Bu ferma sotiladi” hikoyasidagi landshaft tasvirlarining o'ziga xosligi va ahamiyati o'rganiladi. Muallifning Sharqiy Kentukki tog' manzaralarini tasvirlash orqali inson va tabiat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni yoritishga intilishi tahlil qilinadi. Hikoya davomida tabiat ramz sifatida inson hayoti, qadriyatlari va modernizatsiya bilan bog'liq ziddiyatlarni ochib beradi. Tabiatning estetik va funksional jihatlari qahramonlarning ichki kechinmalarini aks ettiruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Maqolada landshaft tasvirlarining realistik va hissiy jihatlari orqali hikoyaning mavzusi va mazmuni chuqurlashtirilganligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Jessi Styuart, landshaft tasviri, inson va tabiat munosabatlari, Appalachiya, qishloq hayoti, tabiat ramzi, modernizatsiya va ziddiyatlar, Sharqiy Kentukki.

Turli davrlar va adabiy an'analar davomida ko'plab adiblar o'z asarlarida landshaft tasviridan foydalanib kelishadi. Ular tabiat va tashqi muhitni mavzular, kayfiyat, qahramonlarning o'sishini yoritishda qo'llashadi. Bu kabi yozuvchilar tabiat tasvirini nafaqat o'z asarlarining estetik sifatini oshirish uchun, balki inson tabiati, shaxsiyat, ma'naviyat va jamiyatning atrof-muhit bilan munosabati kabi chuqur mavzularni o'rganish uchun ham qo'llashgan. Jumladan, Uilyam Vordsvort (William Wordsworth), Henri Devid Toro (Henry David Thoreau), Tomas Hardi (Thomas Hardy), Robert Frost (Robert Frost)larni landshaft tasviri ustalari, deyish mumkin. O'zbek adabiyotida ham Shukur Xolmirzaev, Tog'ay Murod,



Normurod Norqobilov kabi yozuvchilar ijodida tabiat manzaralari alohida o'rin egallaydi. Jessi Styuartni ham shu kabi ijodkorlar safiga qoshishimiz mumkin. U nafaqat adabiyot sohasida ulkan iste'dod sohibi, balki uni o'rab turgan tabiatning g'oyat jo'shqin himoyachisi ham edi. Kentukki shtatining Greenup okrugida tug'ilgan Styuartning sharqiy Kentukki tog'li manzaralaridagi tarbiyasi uning ijodiga va tabiatga bo'lgan chuqur sevgisiga katta ta'sir ko'rsatdi. U o'z asarlarida landshaftni, ayniqsa, Appalachiya tog'li mintaqasini, markaziy mavzu sifatida ishlatgan. Uning tabiat bilan chuqur bog'liqligi va yerni jonli tasvirlashi inson va u yashayotgan muhit, ayniqsa qishloq hayoti kontekstidagi yaqin aloqani aks ettiradi. Appalachiya qishloqlari Styuart ijodining markazida turib, qahramonlarning ichki kechinmalari va kundalik hayotini landshaft orqali yoritishga xizmat qiladi.

Styuartning asarlari tabiatning estetik go'zalligini hamda insonning tabiat bilan uyg'un hayot kechirishini tasvirlab, uni qahramonlarning hayoti va ruhiyatini aks ettirish uchun vosita sifatida ishlatadi. "Styuart professional naturalist emas. U o'zi muxlis bo'lgan Henri Devid Toro singari tabiatni sevuvchi va uni diqqat bilan kuzatuvchi inson"¹ [Foster, 1968:91] bo'lgan.

Inson va tabiat munosabatlari mavzusi Jessi Styuartning "Bu ferma sotiladi" ("This farm for sale", 1968) da markaziy mavzulardan biridir. Hikoyada Stounlar oilasi fermalarini sotishmoqchi bo'lishadi. Melvin Spensr ismli kishi gazetaga e'lon joylashtirish bilan shug'ullanadi. U shoirona yozilgan e'lonlari bilan mashhur edi. Melvin fermaga kelib oilaning uylarini va yerlarini ko'zdan kechiradi. E'lon gazetada chop etiladi. E'lon shu darajada chiroyli va ishonarli chiqadiki, oila boshlig'i Dik amaki fermani sotish fikridan qaytadi. U Melvinga qanday boylik va mulkka ega ekanligini bildirib qo'ygani uchun va'dalashishganidan ko'ra ko'proq pul to'lashini aytadi.

¹ Foster Ruel, Jesse Stuart (New York: Twayne, 1968), p.91



Asarda fermaning o‘zi ramziy ma’noda hikoya qahramoniga aylanib, tabiat dunyosi bilan qorishib ketgan hayot yo’lini anglatadi. Ayniqsa, Melvin Spensrning ferma tasviri bu bog’liqlikka urg‘u beradi: u tabiiy resurslarning yorqin va jozibador qiyofasini, yerning go’zalligi va unumdorligini shoirona ta’riflaydi. *“And, like the soil along the Nile River, this overflowed land, rich with limestone, never has to be fertilized. I saw cane as high as a giraffe, and as dark green as the waves of the Atlantic. It grew in long, straight rows with brown clusters of seed that looked to be up against the blue of the sky. I have never seen such dark clouds of corn grow out of the earth. Five acres of tobacco, with leaves as broad as a mountaineer’s shoulders. Pleasant meadows with giant hay- stacks here and there. It is a land rich with fertility and abundant with crops”*.² [Stuart, 1963:138] Fermaning alohida xususiyatlari – boy, hosildor zamini, ko’kka bo’y cho‘zgan daraxtlari va mo’l hosili – Stounlar hayotining qay darajada yer bilan chambarchas bog’liqligini ko’rsatadi.

Tabiat serobgarchilik va mahsuldorlik manbai sifatida tasvirlangan. Fermada oila ehtiyojini qondiradigan hamma narsa, oziq-ovqatdan tortib boshpana, hattoki tashqi resurslardan o‘g’itgacha yetishtirish mumkin. Dik amakining zamin tuproqlarining mahsuldorligi, ya’ni ohaktosh bilan boyitilgan tuproq va dehqonchilikning zamonaviy aralashuvlarsiz uzoq yillik an’anasi bilan faxrlanishi inson va tabiat uyg’unligini aks ettiradi. *“It’s limestone land,” Uncle Dick bragged. “Never had to use fertilizer. My people have farmed these bottoms over a hundred years.”*[Stuart, 1963:133] Daryo, tepaliklar va kesilmagan o’rmonlar bu uyg’unlikning bir qismi bo’lib, ular insonlar hayotini ta’minlaydi va go’zallik hamda rizq beradi.

Shu bilan bir qatorda, hikoya qahramonlarida tabiiy cheklovlarga nisbatan yashirin bir norozilik mavjud, ayniqsa zamonaviylik va imkoniyatlar jihatidan. Dik amaki va Emma xola, xuddi boshqa qishloqdagi insonlar singari zamonaviy qulayliklarni orzu qilishadi. *“The old place is as good as sold, Mother,” Uncle Dick said with a wink. “You’re a-goin’ to be out of the mud. We’ll let some other woman slave around here and wear galoshes all*

² Stuart J. A Jesse Stuart reader: stories and poems – New York: McGraw-Hill, 1963.–P.138



winter. We'll be on the bright, clean streets wearin' well- shined shoes-every blessed one of us. We'll have an electric washer, a radio where we won't have to have the batteries charged, a bathroom, and an electric stove. No more of this stove wood choppin' for the boys and me.” [Stuart, 1963:135] Tabiiyki, bunday qulayliklar fermaning ajralib qolganligi sababli imkonsiz. Yo'l va elektr tokining yo'qligi tabiatning ular ustidan hukmronligini anglatib, tashqi dunyo bilan aloqalarini cheklaydi. Ayniqsa, Emma xola shahar hayotining shinamligini qo'msaydi – elektrni, toza ko'chalarni, qattiq qish kunlarida loyda kechib yurishdan qutulishni xohlaydi.

Landshaft tasviri tabiat hamda zamonaviy dunyo qadriyatlari orasida mavjud ziddiyatlarni ham ochib beradi. Dik amaki va uning oilasi avvaliga fermaga “madaniylashgan” shaharga ko'chib o'tish vositasi sifatida qarashadi. Biroq, Spensrning shoirona ta'rifi–yerning hosildorligi, betakrorligi va tarixiy ahamiyati–ularni o'z qarorlarini qayta o'ylab ko'rishga majbur qiladi. Hikoya nihoyasida Dik amaki “qay darajada boy ekanligini fahmlamaydigan odam” ligini hamda ferma pul bilan o'lchab bo'lmaydigan boylik ekanligini tushunib yetadi. *“I know we're not goin' to sell now, for it takes two to sign the deed. I'll be willing to pay Mel Spencer a little extra because he showed me what we have.”* [Stuart, 1963:140] Bu anglash insonning tabiat hadyalarini ko'pincha qadrsiz deb bilishini, ammo boshqacha ko'z bilan ko'rganida ularning qiymatini qayta kashf etishi mumkinligini ko'rsatadi.

Shunday qilib, “Bu ferma sotiladi” hikoyasida Styuartning landshaft tasviri hikoyaning mavzularini va qahramonlarning ichki kechinmalarini yetkazishda muhim rol o'ynaydi. Muallif landshaft tasvirida quyidagilardan foydalanadi:

1) U boy va batafsil tasvirlarni ishlatib, muhitni jonlantiradi. U fermaning tabiiy go'zalligini, dumaloq tepaliklarni, unumdor dalalarni va serxashak o'rmonlarni tasvirlaydi. Bu tasvirlar fermaning serhosilligini hamda yer va unda yashovchilarning o'zaro aloqasini kuchaytiradi.



2) Landshaft hayot davomiyligini ta'minlovchi muvozanatli birlik sifatida tasvirlanadi. Tabiat elementlari, masalan, daryo va daraxtlar, ferma ekotizimining ajralmas qismlari sifatida ko'rsatiladi, ular oila uchun go'zallik va resurslar taqdim etadi. Bu muvozanat tabiat bilan uyg'unlikda yashash maqsadini aks ettiradi.

3) Styuart landshaftga tarix va shaxsiy ahamiyat hissini singdiradi. Tasvirlar ko'pincha yer bilan bog'liq xotiralarni va tajribalarni eslatadi, bu esa uning ahamiyatini nafaqat jismoniy joy sifatida, balki oilaning shaxsiyati va merosining bir qismi sifatida ko'rsatadi.

4) Landshaft oilaning zamonaviy dunyo bilan ziddiyatini tasvirlashda fon sifatida xizmat qiladi. Tabiatning go'zalligi va boyligi shahar hayotining ohanrabosi bilan qarama-qarshi qo'yiladi, bu esa modernizatsiya istagi va tabiatni qadrlash o'rtasida keskinlik yaratadi.

5) Muallif tasvirlari kuchli hissiyotni uyg'otadi, bu esa qahramonlarning yerga bo'lgan munosabatini aks ettiradi. Landshaft go'zalligi o'tmishni qumsash, faxr va chuqur bog'lanish hissini keltirib chiqarishi mumkin, bu esa oilaning dastlabki "madaniylashgan" hayotga ko'chish istagi bilan qarama-qarshi qo'yiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Styuartning "Bu ferma sotiladi" hikoyasidagi landshaft tasviri hikoya mavzularini mustahkamlashga xizmat qiladi, inson va tabiat o'rtasidagi murakkab aloqani va yer bilan uyg'unlikda yashash an'analarni yoritadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Blair E.L Jesse Stuart: His Life and Works—Columbia: University of South Carolina Pre 1967— 312p
2. Foster R.E. Jesse Stuart—New York: Twayne's United States Authors Series, 1968—168p.
3. LeMaster, J.R. and Clarke M. W. Jesse Stuart: Essays on His Work – Kentucky: The University Press of Kentucky, 1977. – 175 b.
4. Stuart J.A Jesse Stuart reader: stories and poems—New York: McGraw-Hill, 1963- 342 p
5. Yo'ldosh Q, Yo'ldosh M. Badiiy tahlil asoslari.—Toshkent: Kamalak, 2016.—464 b.